

---

## Rishton tumanida “Yangi O‘zbekiston–inson qadri ulug‘langan yurt” shiori ostida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar ko‘tarinki ruhda davom etmoqda!

Avval xabar qilinganidek, viloyatimiz maskanlari, mahalla fuqarolar yig‘inlarida “Yangi O‘zbekiston –inson qadri ulug‘langan yurt” shiori ostida kontsert dasturlari, teatrlashtirilgan tomoshalar, ijodiy uchrashuvlar va eng sara kinofilmlar namoyishi bo‘lib o‘tishi belgilangan. Rishton tumanida “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan yurt” shiori ostida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar davom etmoqda. Ijodiy bayram shukhi deyarli har bir mahallani qamrab olmoqda. Navbatdagi ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir va kontsert dasturi “Dorulomon” mahalla fuqarolar yig‘inidagi “Vatanparvar” tashkilotida davom etdi. Tuman aholisi, yoshlar vakillari va tumanimiz mehmonlari jam bo‘layotgan tadbirda poytaxtimizdan tashrif buyurgan hamda viloyatimizning yetuk madaniyat va san‘at namoyandalari, ma‘naviyat targ‘ibochilari ishtirokida turkum dasturlar, badiiy chiqishlar namoyish etilmoqda. Tadbirda O‘zbekiston yozuvchilar Uyushmasi raisi o‘rinbosari G‘ayrat Majid, Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri aktyori Muhabbat Sotiboldieva, estrada xonandasi, “Nihol” mukofoti sovrindori Iroda Iskandarova, taniqli xonanda Mohira Asadova, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, “Ma‘rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a‘zosi Nigora Saidalieva va tumanimiz ijodkorlari ishtirok etishmoqda. Elimiz suygan xonandalar, kino va teatr aktyorlari, taniqli olimlardan iborat ma‘naviyat targ‘ibotchilari tashrifi rishtonliklar qalbiga bir olam quvonch ulashmoqda. Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan yurt” shiori ostida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir soat 14:00da tuman "Madaniyat" saroyida bo‘lib o‘tadi.

2022-05-31 14:15:20